Abstract. *In the current era of climate change and global environmental challenges, the integration of sustainability principles into the latest industrial revolution, Industry 5.0, is becoming increasingly important. This industrial revolution requires a shift from an industrial approach focused on efficiency and automation to a paradigm that prioritizes collaboration between humans and machines, innovation, and harmony with the environment. This article explores the dynamic intersection between Industry 5.0 and sustainability, and explores how this development is aimed at combining human creativity and experience with advanced technological capabilities. Industry 5.0 is a new paradigm of technological progress and industrial production, which aims to combine the main principles of Industry 4.0 - robotization, the Internet of Things (IoT), and artificial intelligence (AI) - with human and social values. The purpose of this article is to analyze the essence of "industry 5.0", its differences from "industry 4.0", its economic, social and environmental advantages, as well as the main problems in its implementation and future prospects.*

Key words: industry 5.0, industry 4.0, sustainability, human factor, artificial intelligence, sustainable production, environment, resource efficiency, efficiency, technology.

Kirish

“Sanoat-5.0” konsepsiyasining paydo bo‘lishi ishlab chiqarish va sanoat rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda barqarorlikka ustuvorlik beradigan yangi davrni boshlab berdi. Ushbu konsepsiyaning ilgari surilganiga ko‘p baqt bo‘lmagan bo‘lsada, juda tezlikda ommalashib bormoqda, chunki u iqtisodiy o‘sinh va atrof-muhitni boshqarishning ko‘pincha ziddiyatli maqsadlarini uyg‘unlashtirishga intiladi. “Sanoat-5.0” ning mohiyati shundaki, u samaradorlik, mahsuldorlik va atrof-muhit barqarorligini oshirish uchun inson ijodkorligi va mahoratini aqlli tizimlar va avtomatlashtirish imkoniyatlari bilan birlashtirishga qaratilgan. Mohiyatan, “sanoat-5.0” to‘rtinchi sanoat inqilobining ishlab chiqarish texnologiyalarida avtomatlashtirish va ma’lumotlar almashinuviga urg‘u berishidan inson aqlini va barqaror amaliyotlarni o‘z ichiga olgan yanada keng qamrovli yondashuvga o‘tishni anglatadi. Buning negizida iqlim o‘zgarishi, resurslarning kamayishi va atrof-muhitning yomonlashuvi kabi global muammolar oldida barqaror rivojlanishning ahamiyati yotadi. U atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlagan holda, inson imkoniyatlarini oshirish uchun texnologiyalardan foydalanishga asoslangan muvozanatli yondashuvni taklif etadi. “Sanoat-5.0” ning barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, sanoat rivojlanishini sayyoramizning ekologik chegaralari doirasida amalga oshirish yo‘lini ochib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12 oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-169-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq: mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo‘nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali

raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish belgilanib, davlat sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha vazifa va funksiyalar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuklandi [1].

“Sanoat-5.0” va barqarorlik o'rtasidagi sinergiyaning chuqur o'rganilmaganligi katta imkoniyatning boy berilishiga olib kelmoqda. Bugungi kundagi bilimlar yetishmovchiligi “sanoat-5.0” ning sanoat jarayonlarini barqarorlik mezonlariga moslashtirish orqali tub o'zgarishlarni keltirib chiqarish salohiyatini tushunishimizni cheklamoqda. Ushbu o'zaro bog'liqlikni har tomonlama tahlil qilmasdan, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun “sanoat-5.0” dan foydalanish imkoniyati e'tibordan chetda qolishi mumkin. Bu holat nafaqat nazariy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, balki barqaror rivojlanish muammolarining amaliy va innovatsion yechimlarini aniqlashga ham xalaqit beradi.

Aynan shu muammolarni hal qilish maqsadida Yevropa Ittifoqi tomonidan ilgari surilgan “sanoat-5.0” konsepsiyasi paydo bo'ldi [2]. U nafaqat raqamli transformatsiyani davom ettirishni, balki uni uchta asosiy ustunga asoslangan insonparvar va barqaror yo'nalishga aylantirishni maqsad qilgan:

1. Inson-markazda bo'lishi: texnologiya insonni almashtirishi emas, balki insonning qobiliyatlarini kuchaytirishi va ish joyini qulayroq, xavfsizroq va ma'nodor qilish uchun xizmat qilishi kerak.

2. Barqarorlik: ishlab chiqarish jarayonlari tabiiy resurslarni tejash, aylanma iqtisodiyot tamoyillariga amal qilish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilishi lozim.

3. Mustahkamlik (Qiyinchiliklarga chidamlilik): global zanjirlarning buzilishiga (pandemiya, geosiyosiy ziddiyatlar) qarshi turish uchun ishlab chiqarish tizimlari moslashuvchan va mustahkam bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

“Sanoat-5.0” ning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi haqidagi adabiyotlar tobora ko'payib bormoqda. Ushbu adabiyotlar sharhi mavzuni chuqurroq tushunish uchun asosiy manbalarni, ularning asosiy xulosalarini va o'ziga xos hissalarini tartibga soladi. Xorijiy adabiyotlar “sanoat-5.0” konsepsiyasini umumbashariy va Yevropa davlatlari rivojlanishi darajasida ko'rib chiqadi, uning falsafiy, texnologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur o'rganadi. Xususan, Yevropa Komissiyasi (2021) “Industry-5.0: Towards a sustainable, human-centric and resilient European industry” hisobotida, shunday tavsif keltiriladi: “Sanoat-5.0” ni rasman belgilab beruvchi va uning asosiy tamoyillarini bayon qiluvchi asosiy hujjatlardan biridir” deyiladi [2]. Ushbu hujjat “sanoat-4.0” ning faqat texnologik samaradorlikka

qaratilganligidan voz kechib, iqtisodiyotni barqarorlik, insonga qaratilganlik va chidamlilik ustunlariga qayta qurish zarurligini ta'kidlaydi. U texnologiyaning inson xizmatidagi vositachi sifatida qayta belgilanishi kerakligini bayon qiladi. Breque M., De Nul L., & Petridis A. (2021) "Industry-5.0: Transformative vision for the European industry" yuqoridagi hisobotga ilova sifatida taqdim etilgan maqolada konsepsiyaning amaliy jihatlarini batafsilroq ko'rib chiqadi [3]. Tadqiqotda "sanoat-5.0" ning o'nta texnologik negizini (masalan, sun'iy intellekt, robotlar, aylanma iqtisodiyot texnologiyalari) ajratib ko'rsatadi va ularning har biri qanday qilib uchta asosiy ustunga hissa qo'shishini tushuntiradi.

Nahavandi S. (2019) "Industry-5.0 - A human-centric solution. Sustainability" nomli maqolasi "sanoat-5.0" ning inson-markazlilik jihatini chuqur o'rganuvchi dastlabki ilmiy maqolalardan biri hisoblanadi [4]. Maqolada tadqiqotchi "Sanoat-5.0"ni "inson va mashinaning uyg'un simbiozi" deb ta'riflaydi. U avtomatlashtirishning to'liq insonni almashtirishiga qarshi chiqib, texnologiyaning inson qobiliyatlarini kengaytirish va ish joyida hamkorlikni oshirish vositasi sifatidagi rolga alohida urg'u beradi.

Xu X., Lu Y., Vogel-Heuser B., & Wang L. (2021) "Industry-4.0 and Industry-5.0 - Inception, conception and perception" maqolasida mualliflar "sanoat-4.0" va "sanoat-5.0" o'rtasidagi konseptual farqlarni aniq ajratib ko'rsatadilar [5]. Ularning fikricha, "sanoat-4.0" "texnologik markazlashgan", "sanoat-5.0" esa "ijtimoiy-funksional" bo'lib, u texnologiyani inson va jamiyat ehtiyojlariga bo'ysundiradi.

Yana bir tadqiqotchi Doyle-Kent M., & Kopacek P. (2020) "Industry-5.0: Is the manufacturing industry on the cusp of a new revolution?" maqolasida "sanoat-5.0" ning amalga oshirilishi va uning ishchi kuchiga ta'sirini o'rganadi [6]. Tadqiqotchi robotlarning muhimligini ta'kidlaydi, ular insonlar bilan birga xavfsiz ishlashi va og'ir, takroriy vazifalarni bajarishi mumkin. Bu esa insonlarni ijodkorlik va murakkab muammolarni hal qilish kabi yuqori qo'shilgan qiymatli vazifalarga e'tibor qaratishiga imkon beradi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "sanoat-5.0" konsepsiyasini O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Bu sohadagi tadqiqotlar endi rivojlanayotgan bo'lsa-da, ularning ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, Rasulov A.X., Xalmuradov R.R. (2022) "Sanoat-5.0: yangicha qarash va O'zbekiston sanoatida uning ahamiyati" nomli maqolasida "sanoat-5.0" ning asosiy tamoyillarini soddalashtirib, ularni mamlakat sanoat siyosati bilan bog'laydilar hamda mualliflar O'zbekiston sanoati uchun "sanoat-5.0" ning ahamiyatini quyidagilarda ko'radilar:

- aholi bandligini saqlash: to'liq avtomatlashtirish o'rniga, texnologiya yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini yaratish uchun ishlatilishi;

- mahalliy resurslardan samarali foydalanish: aylanma iqtisodiyot tamoyillari paxta tolasidan qayta ishlangan mahsulotlar kabi an'anaviy sohalarda qo'llanilishi;
- import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish: mustahkam va moslashuvchan ishlab chiqarish zanjirlari mamlakatni tashqi ta'sirlardan himoya qilishga yordam berishi masalalari bayon qilingan [7].

Abduraxmanov G'.A. (2023) "Sanoat-5.0 sharoitida O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari" nomli tadqiqotida "sanoat-5.0" ga o'tish uchun quyidagi choralar ko'rilishi taklif etiladi: ta'lim islohoti: maktab va OTM larda STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika) ta'limini rag'batlantirish, shuningdek, "yumshoq ko'nikmalar" (kreativlik, muloqot) ga e'tibor berish; kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash: ular uchun bulutli hisoblash va kichik hajmdagi robototexnika kabi arzon texnologiyalarga kirish imkoniyatlarini yaratish; smart-qishloq xo'jaligi: "sanoat-5.0" tamoyillari an'anaviy qishloq xo'jaligiga tatbiq etilib, suv va o'g'itlardan samaraliroq foydalanishga erishish [8].

Yana bir iqtisodchi olim Hakimov Z.T. (2023) "Sanoat-5.0 ga o'tishda O'zbekiston sanoatida qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari" nomli maqolasida asosiy muammolar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatilgan:

- infratuzilma etishmovchiligi: barqaror va yuqori tezlikdagi internet va elektr ta'minotining hamma joyda yetishmasligi;
- kadrlar tayyorlash tizimining sustligi: zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassislarning yetishmasligi;
- investitsiyalarning cheklanganligi: yangi texnologiyalarga katta sarmoya kerakligi masalalari [9].

Muallif tomonidan davlat-xususiy sheriklik modelini joriy etish, texnoparklarni rivojlantirish va xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'yish takliflari ilgari surilgan.

1-jadval

O'rganilgan adabiyotlarda "Sanoat-5.0" tushunchasiga berilgan ta'riflari¹⁴⁰

t/r	Muallif (lar)	"Sanoat-5.0" tushunchasining ta'rifi
1.	Nahavandi S.	"Sanoat-5.0" - bu odamlar va avtonom mashinalar o'rtasidagi sinergiya. Avtonom ishchi kuchi inson maqsadi va xohishi haqida idrok va xabardor bo'ladi.
2.	Demir, Doven va Sezen	"Sanoat-5.0" uchun ikkita qarash paydo bo'ldi. Birinchisi, "inson-robot hamkorligi" bo'lib, u erda robotlar va odamlar qachon va qaerda imkon bo'lganda birga ishlaydi; ikkinchisi esa - bu bioiqtisodiyot bo'lib, unda biologik resurslardan sanoat maqsadlarida oqilona foydalanish ekologiya, sanoat va iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanatga erishishga yordam beradi.
3.	Maddikunta va	"Sanoat-5.0" kuchli, aqlli va aniq mexanizmlar bilan hamkorlik qilish

¹⁴⁰ O'rganilgan adabiyotlar asosida mualliflar tomonida tuzuldi.

	boshqalar	maqsadida mutaxassislarning noyob ijodkorligidan foydalanish uchun konseptuallashtirilgan.
4.	O'zdemir va Hekim	“Sanoat-5.0” - bu “sanoat-4.0” konsepsiyasi va amaliyotiga asoslangan bosqichma-bosqich (lekin juda zarur) taraqqiyot hisoblanadi. “Sanoat-5.0” ning asosiy maqsadi tarmoqdan “xavfsiz chiqish strategiyasi”siz ekstremal integratsiyalashuv, ochiq tizimlarga qarshi innovatsiyalar va texnologiyaning ijtimoiy natijalarga nisbatan tezlashuvi va sekinlashuviz o'ta integratsiyalashuvni o'z ichiga olgan “sanoat-4.0” dagi yetarli baholanmagan noaniqliklarni bartaraf etishdan iborat.
5.	Longo, Padovano va Umbrello	“Sanoat-5.0” - bu “Ijtimoiy aqlli zavod” davri bo'lib, u erda kiber-jismoniy ishlab chiqarish tizimlarining har bir umumlashtiruvchi bloki korporativ ijtimoiy tarmoqlar orqali inson omili bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi.
6.	Breque M., De Nul L. & Petridis A	“Sanoat-5.0” sanoatning ish o'rinlari va o'sishdan tashqari ijtimoiy maqsadlarga erishish, ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va inson farovonligini ishlab chiqarish jarayonining markaziga qo'yish orqali barqaror farovonlikni ta'minlovchisiga aylanish kuchini tan oladi. “Sanoat-5.0” mavjud “sanoat-4.0” konsepsiyasini tadqiqot va barqaror innovatsiyalar, insonga qaratilgan sanoatga o'tishni ta'minlab, to'ldiradi.

Xulosa qilib aytganda, amalga oshirilgan tadqiqotlar “sanoat-5.0” konsepsiyasining nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarbligini ko'rsatadi. Kelgusi tadqiqotlar mahalliy va xorijiy tajribalarni sintez qilishga va ushbu yangi paradigmani amalga oshirishning O'zbekiston modelini ishlab chiqishda amaliy qo'llanma sifatida qoralishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida zamonaviy iqtisodiy tahlil va siyosiy-ijtimoiy baholashda keng qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Sanoat siyosatini shakllantirish, uni xalqaro amaliyot asosida tahlil qilish va milliy rivojlanish sharoitlariga moslashtirishda deduksiya va induksiya metodlari alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, umumiy nazariy yondashuvlardan O'zbekiston sharoitiga xos xulosalar chiqarishda deduktiv usul qo'llanilgan bo'lsa, xalqaro amaliyot asosida umumlashtirilgan qarashlarni shakllantirishda induktiv usuldan foydalanildi. Shuningdek, abstrakt-mantiqiy fikrlash va ilmiy abstraksiya metodlari orqali “sanoat-5.0”ning mohiyati, tamoyillari va siyosiy vositalari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ldi: birinchi bosqichda “sanoat-5.0” ning asosiy xususiyatlari va “sanoat-4.0” bilan farqlari aniqlandi; ikkinchi bosqichda esa ushbu konsepsiyaning afzalliklari, to'siqlari va kelajakdagi ta'siri baholandi. Jarayonlarni tizimli tahlil qilishda sintez va tahlil, ya'ni tarkibiy qismlarni o'rganib, ularni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish yondashuvi asosiy metodologik tamoyil bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar “sanoat-5.0” va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka katta e‘tibor qaratmoqda, ularni zamonaviy sanoat muhokamalarining muhim ustunlari sifatida tan olmoqda. Sanoat inqilobining so‘ngi bosqichi sifatida paydo bo‘lgan “sanoat-5.0” konsepsiyasi inson aql-zakovatini sun‘iy intellekt va kiberfizik tizimlar kabi eng ilg‘or texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirmoqda. U an‘anaviy samaradorlik va unumdorlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda jamiyat farovonligi va atrof-muhit yaxlitligini qadrlab, sanoat sohalari yangilashga undamoqda. Uzoq vaqtdan beri zamonaviy korxonalarning asosiy tayanchi sifatida qaralgan barqarorlik sanoatni ekologik muvozanat, ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar va axloqiy boshqaruv tomon yetaklamoqda. “Sanoat-5.0” ning ko‘rinishi va barqarorlik talablari uyg‘unligi uch tomonlama foyda: insonlar, sayyora va daromadni ta‘minlovchi innovatsion yechimlarni yuzaga keltiradi.

Ba‘zi tanqidchilar “sanoat-5.0” yo‘lida ehtimoliy iqtisodiy va ekologik murosalar haqida xavotir bildirsalar-da, tarafdorlar uning yaxlit farovonlik imkoniyatlarini alohida ta‘kidlaydilar. Masalan, barqaror energiya tizimlari “sanoat-5.0” soyasida gullab-yashnab, qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlamoqda va energiya muammolarini hal etmoqda.

“Sanoat-5.0” konsepsiyasining asosida texnologik taraqqiyot va barqarorlik bir-birini inkor etmasdan, aksincha, bir-birini to‘ldirishi yotadi. Ushbu tizim qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va barqaror energiya jarayonlari kabi barqaror amaliyotlar sanoat rivojlanishining ajralmas qismi ekanligini ta‘kidlaydi. U barqaror sanoat kelajagini shakllantirishda turli manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumat, kompaniya va iste‘molchilarning muhim rolini ko‘rsatib beradi. Bunda hukumat siyosat va tartibga solish orqali imkoniyat yaratuvchilar, kompaniyalar barqaror texnologiyalar va amaliyotlarni joriy etuvchilar, iste‘molchilar esa ekologik mas‘uliyatli mahsulotlarga bo‘lgan talabning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Ushbu nazariy asos 2-rasmda o‘z aksini topgan. U asosiy tendensiyalar va taraqqiyotni belgilab, muammolar va imkoniyatlarni aniqlaydi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda turli manfaatdor tomonlarning vazifalarini yoritib beradi.

“Sanoat-5.0” konsepsiyasidagi barqarorlik resurslarni boshqarish va chiqindilarni kamaytirishdan tortib, adolatli mehnat sharoitlarini rag‘batlantirishgacha bo‘lgan turli sohalarni qamrab oladi. Masalan, nuqsonsiz ishlab chiqarish chiqindilarni minimallashtirish va innovatsion ishlab chiqarish usullari orqali resurslardan samarali foydalanishga o‘tishni namoyish etadi. Nuqsonlarni oldindan aniqlash va oldini olish, chiqindilarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun mashinali o‘rganish va prognozlashning tahlil texnologiyalaridan foydalanadi.



2-rasm. “Sanoat-5.0” va barqarorlik asoslari¹⁴¹

“Sanoat-5.0” tadqiqotlariga sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar bazasi, blokcheyn va boshqa tegishli texnologiyalarni kiritish texnologik jarayon va uning barqarorlikka ta’siri haqidagi tushunchamizni sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Ushbu texnologiyalar sanoat muhitida energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish orqali barqaror amaliyotlarga hissa qo‘shib, “sanoat-5.0” vositasida barqarorlikni ta’minlashda sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Xulosa va takliflar

“Sanoat-5.0” sanoat taraqqiyotining yangi, istiqbolli bosqichidir. U texnologik aqlli “sanoat-4.0” ni inson farovonligi, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga intiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, garchi amalga oshirishda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy to‘siqlar mavjud bo‘lsa-da, “sanoat-5.0” global muammolarga (iqlim o‘zgarishi, pandemiya, tengsizlik, iqtisodiy inqirozlar) qarshi kurashish va iqtisodiy o‘sishni qiyinchiliklarga chidamli va insonparvar yo‘nalishda davom ettirish uchun juda muhim imkoniyatdir.

“Sanoat-5.0” ning barqarorlikka yo‘naltirilgan tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi choralarni taklif qilamiz:

- a) davlat siyosati va qonunchilik darajasida:
 - barqaror va aylanma texnologiyalarni joriy qilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy etilsin;

¹⁴¹ O‘rganilgan adabiyotlar asosida mualliflar tomonidan tuzuldi.

- “Yashil” standartlar va sertifikatlarni majburiy holga keltirish, soxta “yashillantirish” amaliyotiga qarshi kurashish;

- ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish.

b) ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida:

- Oliy ta’lim muassasalarida “raqamli ekologiya”, “aylanma iqtisodiyot muhandisligi” kabi yangi yo‘nalishlar ochish;

- ishchi kuchini qayta tayyorlash va yangi ko‘nikmalar bilan ta’minlash bo‘yicha davlat va korporativ dasturlar ishlab chiqish.

c) biznes va sanoat darajasida:

- korxonalar o‘z faoliyatlari natijasi bo‘yicha “Barqarorlik hisoboti” tayyorlashlari va uni ommaviy ravishda e‘lon qilishni majburuy vazifa sifatida qabul qilishlari;

- yetkazib berish zanjiridagi hamkorlar bilan birgalikda resurslarning yopiq siklini yaratishni (masalan, to‘rtinchi tomon logistika operatorlari orqali chiqindilarni qayta ishlash zavodlariga yetkazib berish) yo‘lga qo‘yish;

- kichik va o‘rta biznesga texnologik yechimlarni arzon narxlarda taklif qiluvchi “sanoat-5.0 platformalari” ni yaratish.

d) ilm-fan va innovatsiyalar sohasida:

- barqaror materiallar, energiyani saqlash texnologiyalari va chiqindilarni qayta ishlashning yangi usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish;

- “davlat - ilmiy muassasa – sanoat” loyihalari orqali yangi texnologiyalarni sinab ko‘rish imkoniyatini yaratish.

e) xalqaro hamkorlik darajasida:

- barqarorlik va “sanoat-5.0” tamoyillari bo‘yicha xalqaro standartlar (masalan, ISO standartlari) ishlab chiqilishi va ularga rioya etish kafolatlarini joriy etish;

- rivojlanayotgan mamlakatlar texnologik jihatdan rivojlangan davlatlar bilan bilim almashish va malaka oshirish dasturlarida ishtirok etishlarini rag‘batlantirish.

“Sanoat-5.0” nafaqat sanoatning texnologik kelajagi, balki butun insoniyatning barqaror kelajagi uchun qilayotgan strategik sarmoyasidir. Ushbu yo‘nalishda harakat qilish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va raqobatbardoshlikni saqlab qolishning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12- oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-169-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>

2. European Commission. (2021). Industry 5.0: Towards a sustainable, human-centric and resilient European industry*. Publications Office of the European Union.
3. Breque, M., De Nul, L., & Petridis, A. (2021). *Industry 5.0: Transformative vision for the European industry*.
4. Nahavandi, S. (2019). Industry 5.0—A human-centric solution*. *Sustainability*, 11(16), 4371.
5. Xu, X., Lu, Y., Vogel-Heuser, B., & Wang, L. (2021). *Industry 4.0 and Industry 5.0-Inception, conception and perception*. *Journal of Manufacturing Systems*, 61, 530-535.
6. Doyle-Kent, M., & Kopacek, P. (2020). *Industry 5.0: Is the manufacturing industry on the cusp of a new revolution?* In *Proceedings of the International Symposium for Production Research 2019*.
7. Rasulov A.X., Xalmuradov R.R. (2022). “Sanoat-5.0: yangicha qarash va O‘zbekiston sanoatida uning ahamiyati”. *Iqtisodiyot va ta’lim jurnali*.
8. Abduraxmanov G‘.A. (2023). “Sanoat-5.0 sharoitida O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari”. *Tafakkur va tadqiqot jurnali*.
9. Hakimov Z.T. (2023). “Sanoat-5.0 ga o‘tishda O‘zbekiston sanoatida qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari”. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*.

ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Мырзалиева Гульмира Асканбековна

кандидат экономических наук, старший преподаватель
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Байкенжеева Дамира Бахытжановна

магистр экономических наук, преподаватель
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Annotatsiya. Maqolada aholining moliyaviy savodxonligi barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Moliyaviy bilim darajasining uy xo‘jaliklarining oqilona qaror qabul qilishi, jamg‘arma hajmining oshishi, investitsion faollik va moliyaviy xatarlarni kamaytirishga ta’siri tahlil qilinadi. Moliyaviy madaniyatni oshirish va moliyaviy ta’limni ta’lim tizimiga integratsiya qilishning zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy savodxonlik, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, jamg‘arma.

Abstract. The article examines the role of financial literacy as a key driver of sustainable economic development. It analyzes how the level of financial knowledge influences households’ rational decision-making, savings growth, investment activity, and risk reduction. The importance of government programs to improve financial culture and integrate financial education into the education system is highlighted.

Keywords. Financial literacy, sustainable development, economic growth, investments, savings.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114